
“Tashabbusli byudjet” asosida “Xurramobod” mahalla fuqarolar yig’inida 315 dona temir-beton tayanchlari o’rnatilib, 5 ming metr havo tarmog’i tortilmoqda

Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda “Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida ajratilayotgan mablag’lar hududlarda yashovchi aholining yillar davomida yig’ilib qolgan eng dolzarb muammolariga yechim bo’lmoqda.

Rishton tumanida ham mazkur loyihada o’z tashabbuslari bilan faol qatnashgan mahallalardagi yo’l, ichimlik suvi, elektr ta’minoti bilan bog’liq muammolar bosqichma-bosqich o’z yechimini topmoqda.

“Xurramobod” mahalla fuqarolar yig’ini aholisi ham mazkur loyihada faol ishtirok etib, o’z tashabbuslarining g’oliblar qatoridan o’rin olishiga erishdi. Mazkur hududda elektr ta’minotini yaxshilash bilan bog’liq muammoga tashabbusli byudjet jarayoni yechim bo’ldi.

“Tashabbusli byudjet” loyihasining joriy yil 2-mavsumida mahalla hududida elektr ta’minotini yaxshilash yuzasidan bildirilgan taklif g’olib deb topildi. Ushbu tashabbusini amalga oshirish uchun qariyb 1 milliard 400 million so’m mablag’ ajratildi.

Loyiha doirasida mahalla fuqarolar yig’ini hududida 315 dona yangi temir-beton tayanchlari o’rnatilib, 5 ming metr havo tarmog’i tortiladi. Shuningdek, hududga uchta yangi transformator punkti o’rnatiladi.

2025-01-24 08:58:56